

“YASHIL” IQTISODIYOT VA EKOLOGIK MADANIYAT: KELAJAKKA NAZAR

Ibragimova Saodat Abdumuminovna

professor,

Islom Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada barqaror rivojlanish kontsepsiyasini amalga oshirish sharoitida ekologik madaniyat va “yashil” iqtisodiyotning ahamiyati va ustuvor yo‘nalishlari, uning istiqbolda rivojlantirish modelini qo‘llash samaradorligi, ekologik madaniyatni shakllantirish, samarali ekologik siyosatni va “yashil” o‘shishni kompleks baholashning asosiy bosqichlari ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *“yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘shish, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, eko-innovatsiya, yangi rivojlanish modeli, ekologik xavf xatar, ekologik-iqtisodiy indikatorlar, barqaror taraqqiyot maqsadlari.*

Аннотация: *В статье рассматриваются и анализируются значение и приоритеты «зеленой» экономики и экологической культуры в условиях реализации концепции устойчивого развития, эффективность применения модели ее будущего развития, основные этапы комплексной оценки «зеленого» роста и эффективной экологической политики.*

Ключевые слова: *«зеленая» экономика, «зеленый» рост, экологическая культура, устойчивое развитие, эконо-инновация, новая модель развития, экологический риск, эколого-экономические показатели, цели устойчивого развития.*

Annotation: *The article examines and analyzes the significance and priorities of the "green" economy and environmental culture in the context of the implementation of the concept of sustainable development, the effectiveness of the application of the model for its future development, the main stages of a comprehensive assessment of "green" growth and effective environmental policy.*

Key words: *"green" economy, "green" growth, ecological culture, sustainable development, eco-innovation, new development model, environmental risk, environmental and economic indicators, sustainable development goals.*

KIRISH

Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar kabi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta'siri oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar barqaror rivojlanish kafolati bo'lmoqda.

Mamlakatimizda 2025 yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb nomlanishi zahirida ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda yashil texnologiyalarni keng joriy etish maqsadlari yotadi. Bu tashabbus

ekologik muammolarga e'tiborni kuchaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ilgari surish va aholi ongida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, joriy yilda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib bir qator vazifalar belgilandi. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori huquqiy asoslarni mustahkamlash borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, yurtdoshlarimizning ekologik madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Davlat dasturiga ko‘ra, aholini atrof-muhit muhofazasiga faol jalb etish, ekologik qonunchilikni mustahkamlash va yosh avlodga ekologik tarbiya berish bo‘yicha keng qamrovli tadbirlar rejalashtirilgan. Ekologik xavfsizlik nafaqat bizning sog‘lig‘imiz, balki kelajagimiz uchun ham nihoyatda muhimdir. Shu bois, fuqarolarni atrof-muhitni muhofaza qilishga faol jalb etish, ularning ongini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

ASOSIY QISM

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo‘lib, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida: 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish hamda Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2028 yillar davrida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va 2019–2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari ham tasdiqlandi. Bu esa Atrof muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu Konsepsiya ko‘rsatib o‘tilgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, davlatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon ijrosini ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ushbu yo‘nalishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlari hamda hamyurtlarimiz ekologik bilimni oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan ushbu qarorning dolzarbligi va muhimligini ta'kidlash zarurdir.

Shuningdek, farmonda belgilanganidek, mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish kabi vazifalarni targ‘ib qilish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlashda yanada mas‘uliyatli bo‘lishga undab, yoshlarni faol bo‘lishga chaqirilmoqda. Hujjatda belgilangan vazifalardan kelib chiqib aytish mumkinki, birlamchi va zifamiz — ekologik ta‘limni erta yoshdan boshlab shakllantirish. Kontseptsiyada maktabgacha ta‘lim tashki lotlari, maktablar, kollej va texnikumlar hamda oliy ta‘lim tizimlarida ekologik bilimlarni chuqurlashtirish, bolalar va yoshlar ongiga tabiatni asrash g‘oyasini singdirish masalalariga alohida urg‘u berilgan. Bu, ayniqsa, “Yosh ekologlar” harakati doirasida olib borayotgan ishlarimizning ko‘lamini yanada kengaytirishga katta turtki beradi. Qarorga muvofiq, bu boradagi ishlar natijasida 2030 yilgacha maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisida ekologik madaniyatni shakllantirish, 4,2 million maktab o‘quvchisi, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tizimi tashkilotlarining 400 ming o‘quvchisi hamda 1,9 million talabaning ekologik ta‘lim-tarbiyasi mustahkamlanishi, ekologik madaniyati yuksalishiga erishish maqsad qilinmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan «Barqaror rivojlanish» kontseptsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan bo‘lib, bunda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o‘lishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo‘nalishlari: qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurilish sohalari barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o‘lishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida vazifalar belgilangan bo‘lib, 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘lishni ta‘minlash dasturida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o‘lish va kambag‘allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatishini hisobga olgan holda ushbu yo‘nalishda mamlakatda iqlim o‘zgarishi ta‘sirini kamaytirish va unga moslashish, «yashil» iqtisodiyotga o‘tish choralari jadallashtirish, «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o‘lish modelini targ‘ib qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, mamlakatda «yashil» iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, «yashil» investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida barqaror taraqqiyot dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishni uchta sohalari (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bo‘yicha kompleks ishlarni olib borish zarurligi ma‘lum qilindi. Unga ko‘ra, iqtisodiyotni “yashil”lashtirishga

dunyo YaIMning 2 % ni investitsiya qilish 2011-2050 yillar davomida hozirgi va kelajakdagi uzoq muddatli o'sish sur'atlarini ta'minlaydi, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi oshishi va ekotizim xizmatlarining yo'qolishi bilan bog'liq jiddiy xavflarning oldini oladi.

Barqaror taraqqiyot deganda doimiy miqdoriy o'sish kabi tom ma'nodagi barqarorlik emas, balki ekologik va ijtimoiy xususiyatlar inobatga olingan holda "nizosiz" rivojlanish nazarda tutiladi. "Barqaror" ma'nosini beruvchi "Sustainable" so'zini "doimiy" emas, balki "mustahkam" yoki "bardavom" deb tushunish lozim. Bugungi kunda inklyuziv barqaror o'sish kontseptsiyasi (inclusive sustainable growth) ning asosiy qoidalari, shu jumladan iqtisodiyot o'sishi sur'atlari va keng doiradagi ijtimoiy muammolar hal etilishi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi, shu jumladan jamiyatda yaratilgan daromadlarni adolatli taqsimlash, bunda aholining nochor qatlamlariga alohida e'tibor qaratish to'g'risidagi xulosani beradi. "Yashil" iqtisodiyot energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyaning muqobil manbalariga, organik qishloq xo'jaligiga, ekodevelopmentga (atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatgan holda qurilishga), ilg'or logistikaga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasida barqaror taraqqiyot maqsadlari iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy printsiplari hisoblanadi. Buning doirasida yuzaga kelayotgan bozor mexanizmlari innovatsiyaga asoslangan holda tabiatni muhofaza qilishga oid va ijtimoiy siyosat bilan maqbul tarzda uyg'unlashadi. Atrofdagi tabiiy muhitni monitoring qilish tizimini modernizatsiyalashga ustuvor ahamiyat berilmoqda, bu mavjud muammolarni kompleks hal qilish imkonini beradi. Qattiq maishiy chiqindilarni davlat-xususiy sheriklik asosida utilizatsiya qilish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etgan holda ularni kompleks boshqarish klasterlari yaratilgan bo'lib, quyidagilar bilan bog'liq: O'zbekistonning o'ziga xos iqlim va geografik xususiyatlari, uning noyob ekotizimlari va atrof muhit, energiya ishlatishga kamaytirishga, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan innovatsion siyosat ustuvorliklari; energiya samaradorligini oshirish va energiyaning qayta tiklanuvchi manbalarini rivojlantirish, energiya tejovchi va kam uglerod sarflaydigan sanoatni rivojlantirish, ekosohani tiklashning muhim loyihalarini amalga oshirish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha milliy siyosat ishlab chiqish va joriy etish.

BMT (Atrof-muhit bo'yicha dastur – United Nations Environmental Programm – UNEP-YuNEP; Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya – ESKATO va hokazolar), Global "yashil" o'sish instituti (Global Green Growth Institute – GGGI) kabi xalqaro tashkilotlar va ko'plab boshqa tashkilotlar "Yashil" o'sish strategiyasini targ'ib qilishda faol rol o'ynaydi. "Yashil iqtisodiyot" atrof muhitni, bioxilmaxillikni va ekotizim xizmatlarni saqlash, "yashil" ish o'rinlari tashkil etish imkoniyatini va qashshoqlik muammosi hal etilishini ta'minlovchi barqaror taraqqiyot masalalarini qamrab oladi. "Yashil" iqtisodiy o'sishning asosiy to'siqlari, texnologik to'siqlarning mavjudligi, innovatsion imkoniyatlarning pastligi, innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabning yetishmasligi, ilmiy kashfiyotlarning va umuman ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalardan olinadigan iqtisodiy daromadlarning kamligi bo'lishi mumkin. Yuqoridagi to'siqlarni bartaraf etish uchun atrof-muhit siyosatini amalga oshirish vositalarini to'g'ri ishlab chiqish muhimdir. Samarali ekologik siyosatni va "yashil" o'sishni kompleks baholashning asosiy

bosqichlari quyidagilardir: “yashil” o’sish ekologik samaradorligi ustuvor indikatorlarini tanlab olish; ular yordamida samaradorlik darajasini aniqlash; maqsadli ko’rsatkichlarni belgilab olish uchun samaradorlik ko’rsatkichlarini taqqoslash. Uzoq muddatli istiqbolda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish modelini maqsadlaridan kelib chiqib iqtisodiyotning quyidagi sektorlari joriy etilgan taqdirda, natijalarga erishish darajasi bilan baholanadi: energetika (energiosamaradorlik, qayta tiklanuvchi energiyaga qisman o’tish); chiqindilarni utilitatsiyalash (antropogen ta’sirni kamaytirish); “yashil” texnologiyalar (bio-, nano-, axborot-kommunikatsion texnologiyalar). “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy indikatorlarini tahlil qilish va hisob-kitob qilish katta ahamiyatga ega. Modelning samaradorligi “yashil iqtisodiyot”ga o’tishni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlari natijadorligini hisobga olgan holda uni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlarini bilan izohlanadi. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish doirasida global ekologik havflar va zamonaviy moslashtirish mexanizmlarini shakllantirish, ekologik havflarni baholash, tabiiy va antropogen ta’sirlar natijasida atrof-muhit sifatini bashoratlash tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Axborot-tahliliy tizimning yaratilishi maqsadida atrof-muhit ifloslanishi tufayli zararni baholash sohasida bilim to’plash va saqlash, iqtisodiy taraqqiyotning salbiy eksternaliyalarini baholash sohasidagi bilimlarni tahlil qilish, ekologik iqtisodiy tahlil jarayonini raqamlashtirish, atrof-muhitning turli komponentlari ifloslanishi tufayli zararni kompleks baholash, salbiy ekologik tahdid va xavflarni monitoring qilish, tahlil qilish va prognozlashtirish dasturiy vositalarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Istiqbolda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish modelini qo’llash samaradorligi iqtisodiyotning quyidagi sektorlarida joriy etilgani bilan baholanadi:

- energetika (energiosamaradorlik, qayta tiklanuvchi energiyaga qisman o’tish);
- chiqindilarni utilitatsiyalash (antropogen ta’sirni kamaytirish);
- “yashil” texnologiyalar (bionano texnologiyalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar);
- “yashil” transport;
- “yashil” qurilish;
- toza suv (suv resurslaridan oqilona foydalanish).

Ushbu sharoitda katta e’tibor:

1) “ekologik innovatsiya”larga qaratilishi lozim;

2) atrof-muhitga aloqador muammolarni yechishning milliy dasturi ekologik havfsizlikni ta’minlash bilan birgalikda ekologik taxdidlar yuqori bo’lgan jabhalarda ekotizimning kompleks va lokal qayta tiklanishini ta’minlash, mintaqada ekotizim monitoringi va ekologik jarayonlar prognozi samaradorligini oshirish, mintaqadagi mamlakatlarning mineral va suv-energetik resurslardan foydalanish borasidagi manfaatlarini ta’minlovchi va tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy bazani shakllantirishdan iborat;

3) tabiiy resurslardan foydalanish masalalari hamda texnologiyalarni tatbiq etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish va iqlimiy o’zgarishlarga moslashish uchun tegishli iqtisodiy mexanizmlar yaratish masalalari bo’yicha qonunchilikni mukammallashtirish talab etiladi;

4) ekologik havfsizligini ta'minlash nafaqat shu mamlakat yoki hududda yashovchi xalqlarning hayotiga bevosita aloqador bo'lib, balki global ahamiyatga ham egadir. Mintaqada ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda ekologik omilning e'tiborga olinishini kuchaytirish, ekologik toza texnologiyalar, bionanotexnologiyalarni tatbiq etish, ekoinnovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, muayyan ekologik muammolarni hal qilish borasida jamoat birlashmalari, nodavlat va notijorat tashkilotlarining faolligini rivojlantirish ustuvor vazifalar deb hisoblanadi;

5) atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik havfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan birgalikda, bir qator dolzarb masalalarni hal etishni nazarda tutish zarur, shu shumladan: – tabiiy resurslardan foydalanish masalalari hamda eko-innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun qulay shartsharoitlar yaratish, “ko'k” investitsiyalarni jalb qilish va iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun tegishli iqtisodiy mexanizmlar yaratish masalalari bo'yicha qonunchilikni mukammallashtirish; ekologik soliqlarni takomillashtirish va ekologik talablarni hisobga olgan holda davlat tomonidan xarid qilish va “yashil” investitsiyalarni amalga oshirish vositasida “yashil” (ekologik toza) texnologiyalarni rivojlantirish uchun yangi moliyaviy vositalarni joriy etish va boshqalar.

O'zbekistonning “Yashil o'sish” va global maqsadlar uchun hamkorlik” (P4G) yaqin yillar ichida ilgari surilgan yirik xalqaro tashabbus hisoblanadi. Uni “yashil rivojlanish” yo'lini tanlagan mamlakat va shaharlarning o'ziga xos klubi, deyish ham mumkin. Hozir loyihaning o'ndan ortiq a'zosi bor. Mazkur platforma doirasida ishtirokchilar “yashil iqtisodiyot”ga o'tishga yordam beradigan innovatsion yechimlar yaratish borasida o'zaro hamkorlik qiladi. “P4G” institutsionallashtirilgan tuzilma bo'lib, bir qator nufuzli xalqaro birlashmalar, moliyaviy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Uning yordamida O'zbekiston “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi”ni amalga oshirish uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishi mumkin. “P4G” yo'nalishidagi sheriklikka qo'shilishimiz pirovard natijada o'zbekistonliklar turmush tarzining yaxshilanishi, hayot sifatining ortishi, shaharlarning yashash uchun qulayligi, mintaqamizda ekologik muvozanatning tiklanishi va boshqa ko'plab ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

XULOSA

O'zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasida olib borayotgan siyosati respublika taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, tabiatga nisbatan bo'layotgan antropogen va texnogen ta'sirlar sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nafaqat respublikada, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik vaziyatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, qaror ijrosi faqat hukumat yoki mutasaddi idoralar zimmasiga yuklanmagan. Bu umumxalq harakati, butun jamiyat, mamlakatimiz aholisining ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan huquqiy hujjatdir. Shu ma'noda, har birimiz kelajagimiz uchun, yashil va sog'lom hayot uchun ekologik madaniyatni umumxalq qadriyatiga aylantirishga kirishishimiz, shu yo'l bilan kelajak avlodlarga barqaror, xavfsiz va farovon hayot qurishni bugundan boshlashimiz zarurligini davrning o'zi ko'rsatmoqda.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasini amalga oshirish sharoitida O'zbekistonning innovatsion, ekologik mo'ljallangan rivojlanish modelining shakllari va mexanizmlarini rivojlantirish tabiatning alohida elementlarini muhofaza qilishdan umuman ekologik tizimlarni muhofaza qilishga o'tishga, inson yashaydigan muhitning optimal parametrlarini kafolatlashga, iqtisodiyot sohalarini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari bo'yicha rivojlantirish mexanizmlari bilan o'zaro aloqalarni uyg'unlashtirishga asoslanishini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son qarori.
2. Ibragimova S. New Uzbekistan and main directions development of a green economy. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume -43, February-2025, 52-55p.
3. Ibragimova S. Green economy concept and features its formation INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 4, ISSUE 29, 2025, 99-105p.
4. Ibragimova S. Problems and prospects of the transition to a "green" economy in Uzbekistan. "Universal Journal of Law, Finance And Applied Sciences" February 2025, 54-59 p.
5. Ибрагимова С., Абдулазизов Ф. НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ // Talqin va tadqiqotlar. – 2025. – №. 1 (59).
6. Ibragimova S. Priority areas of the green economy in sustainable economic development. American Journal of Bizness Manajement, Economics and Banking Issn (E): 2832-8078 volume 22., march-2024, p 112-116.
7. Husainov R., Ibragimova S. Financial literacy in uzbekistan // Interpretation and researches. – 2024. – T. 2. – C. 24.
8. Ибрагимова С.А. Перспективные направления "Зелёной" экономики в Узбекистане. // Журнал Бизнес эксперт, 2024, № 1-2, 90-95
9. Abdumuminovna, I. S. (2023). THE MAIN WAYS TO ENSURE THE ECONOMIC SECURITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY. Open Access Repository, 9(1), 29-33.
10. Abdumuminovna, I. S. (2022). Management of innovative development socioeconomic systems. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(4), 62-66.
11. Abdumuminovna, I. S. (2022). Features of modern innovative development and formation of innovative system. Asian Journal of Research in Banking and Finance, 12(3), 14-17.
12. Ibragimova, S., & Bakhodirova, K. (2023). Formation of investment activities of energy enterprises. In E3S Web of Conferences (Vol. 461, p. 01074). EDP Sciences.